



Mobil texnologiyalar va usullarni o'zlashtirish o'qituvchining kasbiy yo'naltirilgan shaxsini shakllantirishga yordam beradi, u muloqotga, o'quvchilar o'rtasidagi munosabatlarga, maktab mikrosotsiumidagi vaziyatga ta'sir ko'rsatishga qodir, yordamni, vositachilikni tashkil qiladi, nizolarda moderator bo'lib ishlaydi. maktab o'quvchilari o'rtasida ijtimoiy-pedagogik o'zaro munosabatlarning zarur bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bazhenov RI Intellektual axborot texnologiyalari. Birobidjan: Sholem Aleyxem nomidagi PDU, 2011.176 b.
2. Bluestein M. MonoTouchni o'rganish. C # va yordamida iOS ilovalarini yarating. NET -Litr, 2014 yil.
3. Goloshchapov AL Google Android 3. platformasida mobil qurilmalarni dasturlash. - BHV-Peterburg, 2011 yil.
4. Grigsby D., Chernik V., Gardner LD Mobil qurilmalar uchun veb-saytlarni ishlab chiqish. - 2013 yil.
5. Kasyanova EV Masofaviy ta'limni dasturlashni qo'llab-quvvatlashning moslashuvchan usullari va vositalari // Novosibirsk, ISI SB RAS, 2007. p. 170.
6. Kuzmina NV, Shmeleva EA Universitetning kasbiy ta'lim muhitida bo'lajak o'qituvchining innovatsion salohiyatini rivojlantirish // Rossiya Ta'lim Akademiyasi. Xalqaro akmeologiya akademiyasi. Akmeologik tadqiqotlar markazi. - 2013 yil.-- S. 16.
7. Kirilov GI. Kasbiy ta'limning axborot ta'lim muhitini rivojlantirish va o'z-o'zini rivojlantirish // Ta'lim texnologiyasi va jamiyati (Ta'lim texnologiyasi va jamiyati). - 2012. - T. 15. - No 3.-- S. 358-368.

INKLYUZIV TA'LIMDA MAXSUS PEDAGOG FAOLİYATI

Alimova Gulmira Kabuljanovna



*O‘zbekiston Respublikasi Ta’limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazi,
Ixtisoslashtirilgan pedagogika va inklyuziv ta’limni rivojlantirish bo‘limi boshlig‘i*

Mo‘minov Sulton Akbar o‘g‘li

*O‘zbekiston Respublikasi Ta’limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazi,
Ixtisoslashtirilgan pedagogika va inklyuziv ta’limni rivojlantirish bo‘limi bosh
mutaxassisi*

Annotatsiya. Umumta’lim maktablarida tashkil etilgan inklyuziv ta’lim hamda boshlang‘ich tayanch korreksion sinflarda faoliyat olib boradigan maxsus pedagoglar ish faoliyati, qanday korreksion rivojlantiruvchi mashg‘ulotlar olib borishi, har bir alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga psixologik xususiyatlaridan kelib chiqib yondashish texnologiyalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Inklyuziv ta’lim, korreksion mashg‘ulotlar, maxsus pedagog, individual ta’lim dasturlari, inklyuziv guruhlar, inklyuziv ta’lim sinfi, boshlang‘ich tayanch korreksion sinfi, yordamchi texnologiyalar.

Abstract. The work of special pedagogues working in inclusive education and elementary correctional classes organized in general education schools, how to conduct correctional and developmental activities, and the technologies of approaching children with special educational needs based on their psychological characteristics are highlighted.

Key words: Inclusive education, correctional training, special pedagogue, individual educational programs, inclusive groups, inclusive education class, primary correctional class, assistive technologies.

Kirish.

Davlatimiz tomonidan bugungi kunda nogironligi bo‘lgan shaxslar va alohida ta’lim ehtiyojli bolalarni ijtimoiy hayotga yo‘naltirish, ular uchun shart-sharoitlar yaratish hamda ta’lim-tarbiyasiga alohida e’tibor qaratmoqda.

Bularning yaqqol namunasi sifatida yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Ta’lim to‘g‘risida qonuniga alohida inklyuziv ta’lim haqida modda kiritilishidir. **Ta’lim to‘g‘risida qonunning 20-moddasida Inklyuziv ta’lim:**



Inklyuziv ta'lim alohida ta'lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning xilma-xilligini hisobga olgan holda barcha ta'lim oluvchilar uchun ta'lim tashkilotlarida ta'lim olishga bo'lgan teng imkoniyatlarni ta'minlashga qaratilgan. Jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar (shaxslar) uchun ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'lim tashkil etiladi. Inklyuziv ta'limni tashkil etish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Undan tashqari 2023-yil 1-may kuni "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy qonun 2023-yil 30-aprel kuni o'tkazilgan O'zbekiston Respublikasi referendumida umumxalq ovoz berish orqali qabul qilingandi. Ushbu dub o'zgarish barcha sohalar qatorida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ta'limini ham chetlab o'tmadi. Unga ko'ra Konstitutsiyaning 50-moddasida "Ta'lim tashkilotlarida alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan bolalar uchun inklyuziv ta'lim va tarbiya ta'minlanadi" jumlasining kiritilishi diqqatga sazovordir.

Xususan maktabgacha, umumta'lim hamda maktabdan tashqari ta'lim tizimida inklyuziya orqali alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni o'z sog'lom tengdoshlari bilan birgalikda umumta'lim maktablarida bilim olishi, do'stona muhitni, teng huquqligining kafolatlanishi, turli xil zo'ravonlik hamda kamsitishlikka yo'l qo'ymaslik, shu bilan birga bir sinfda bir xil sharoitda ta'lim-tarbiya olishi ko'zda tutilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2020-yil 13-oktabrdagi PQ-4860-sonli qarori hamda ushbu qarorni ijrosini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida" 2021-yil 12-oktabrdagi 638-sonli qarorlariga muvofiq:

inklyuziv ta'lim tizimini joriy qilish, boshlang'ich tayanch korreksion sinflarni ochish va ixtisoslashtirilgan guruhlarini tashkil etish natijalarini hisobga olgan holda ijobiy tajribani respublikaning boshqa hududlariga bosqichma-bosqich tatbiq etish;

ta'lim-tarbiya sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning bosh maqsadi har tomonlama rivojlangan barkamol insonni tarbiyalashdan iboratligi hamda ta'lim muassasalarida ta'lim



jarayonini ilgʻor, ilmiy-uslubiy jihatdan asoslangan yangi va zamonaviy korreksion rivojlantiruvchi metodikalar bilan taʼminlash zarurligi;

bugungi pedagog taʼlim jarayonida oʻqitishning zamonaviy usullarini qoʻllashi, metodik usullarni tanlash jarayonida ham sogʻlom ham alohida taʼlimga ehtiyoji boʻlgan bolalarni darsning didaktik vazifasini hisobga olish vazifalari yuklatilgan.

Qolaversa, Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Maktabgacha taʼlim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida” 2019-yil 13-maydagi 391-sonli qaroriga asosan:

maktabgacha taʼlim tashkilotlarida rivojlanishida jismoniy yoki psixik nuqsonlari boʻlgan bolalar va rivojlanishida nuqsonlari boʻlmagan bolalarning bir tashkilotda birgalikda oʻqishi va tarbiyalanishiga qaratilgan inklyuziv guruhlar tashkil etilishi mumkinligi;

inklyuziv guruh 2 yoshdan 7 yoshgacha boʻlgan bolalar uchun oʻziga xos ehtiyojlari bor bolani jamiyatga moslashtirishni taʼminlash, bolaning qonuniy vakillariga maslahat-metodik koʻmaklashish, oʻziga xos ehtiyoji bor bolalarning bunday zaiflikka ega boʻlmagan bolalar bilan birga oʻqishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida tashkil etilishi; maktabgacha taʼlim tashkilotidagi inklyuziv guruhlariga qabul qilish uchun rivojlanishida jismoniy yoki psixik nuqsonlari boʻlgan bolalar qoʻshimcha ravishda psixologik-tibbiy-pedagogik komissiyaning belgilangan tartibda berilgan xulosasini taqdim etishi;

umumiy turdagi maktabgacha taʼlim tashkilotida rivojlanishida jismoniy yoki psixik nuqsonlari boʻlgan, shu jumladan nutqida nuqsoni boʻlgan tarbiyalanuvchilar bilan korreksion-pedagogik mashgʻulotlarni oʻtkazish uchun defektolog shtat birligi kiritilishi; mashgʻulotlar maxsus pedagogika sohasida oliy maʼlumotga yoki pedagogika boʻyicha oliy maʼlumotga ega boʻlgan va maxsus pedagogika sohasida kasbiy qayta tayyorlovdan oʻtgan defektolog tomonidan oʻtkazilishi;

3 — 7 yoshdagi inklyuziv guruhlardagi rivojlanishida jismoniy yoki psixik nuqsonlari boʻlgan tarbiyalanuvchilar bilan shugʻullanishi;

maktabgacha taʼlim tashkilotidagi inklyuziv guruhlar yosh prinsipi boʻyicha toʻldirilishi; kamida 3 ta inklyuziv guruh tashkil etish;



3 yoshdan katta bo'lgan bolalar uchun mo'ljallangan inklyuziv guruhlar rivojlanishida jismoniy yoki psixik nuqsonlari bo'lgan bolalarning toifasiga qarab to'ldirilishi hamda ko'pi bilan 25 nafar bola, shu jumladan rivojlanishida jismoniy yoki psixik nuqsonlari bo'lgan ko'pi bilan 3 nafar bolani tashkil etishi;

maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv guruhlarda bo'lish davri, korreksion ishlari muddati psixologik-tibbiy-pedagogik komissiya tomonidan belgilanishi ko'rsatilgan.

Undan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Maktabgacha ta'lim sifati va samaradorligini yanada oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2024-yil 30-sentabrdagi PF 152-sonli farmoniga muvofiq:

maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining 2025-yil 1-yanvardan boshlab tajriba-sinov tariqasida har bir tuman (shahar)dagi bittadan umumiy turdagi davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'lim guruhlarini ochish to'g'risidagi tashabbusi qo'llab quvvatlashi;

inklyuziv ta'lim guruhlarida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan tarbiyalanuvchilar bilan ta'lim-tarbiya va korreksion-pedagogik ishlarni olib borayotgan tarbiyachi, yordamchi-tarbiyachilar hamda o'qituvchi-defektolog (logoped)larga alohida mehnat sharoitlari uchun lavozim maoshlari va bazaviy tarif stavkalariga nisbatan bir nafar bola uchun 10 foiz, ikki nafar bola uchun 20 foiz, uch nafar bola uchun esa 30 foiz miqdorida qo'shimcha haq to'lash tartibi joriy etilishi belgilangan.

Yangiliklarni ta'lim jarayoniga olib kirish va joriy etish bugungi kunda har bir pedagogning asosiy vazifasi deb qarashi, bunday mas'uliyatli vazifani ado etish uchun o'qituvchidan izlanuvchanlik, samimiylik, oddiylik, yuksak prinsipiiallik, do'stona munosabat, talabchanlik, o'zgalar taqdiri uchun qayg'urish kabi sifatlarni o'ziga singdirib borish talab etilishini anglashi zarur.

Darhaqiqat, zamonaviy pedagogik texnologiyalar ta'lim jarayonining unumdorligini oshirish barobarida o'quvchilarda mustaqil fikrlash jarayonini shakllantiradi, bilimlarni mustahkam o'zlashtirish, ulardan amaliyotda foydalanish ko'nikma va malakalarini shakllantiradi.

Asosiy qism.



Pedagog har bir dars uchun reja tuzishda aniq maqsadni ko'zlaydi. Bu esa kutilayotgan natijaga erishish mezonini hisoblanadi. Pedagogik texnologiyalardan maxsus ta'limda ham foydalanish bugungi kunda talabga va ehtiyojga aylandi. Hozirgi vaqtda o'quvchilar ma'ruza ko'rinishidagi yoki an'anaviy darslardan ko'ra interfaol uslublarni o'z ichiga qamragan, pedagogik texnologiya va texnik vositalar bilan jihozlangan darslarga ko'proq qiziqishadi. Bu esa maktabda inklyuziv ta'lim va boshlang'ich tayanch korreksion sinflar bolalarining yosh va individual xususiyatlari, aqliy rivojlanishi darajasi, somatik va asab-ruhiy sog'lig'i holatiga muvofiq tashkil etilgan dars va mashg'ulotlarda ast qotadi.

Inklyuziv ta'lim sinflari va boshlang'ich tayanch korreksion sinflardagi o'quvchilarga individual ta'lim dasturlarini o'zlashtirishga yordam ko'rsatish maxsus pedagoglar va tyutorlar (yordamchi pedagog xodimlar) tomonidan amalga oshiriladi. Har bir inklyuziv ta'lim sinflari yoki boshlang'ich tayanch korreksion sinflar ochilgan maktab uchun alohida maxsus pedagog shtat birliklari ajratiladi.

O'quvchilar bilan individual ta'lim dasturlarini o'zlashtirish, maxsus pedagoglar tomonidan ta'lim jarayonidagi barcha darslarda, sinfdan tashqari va boshqa tadbirlarda amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi umumta'lim maktablarida tashkil qilingan inklyuziv ta'lim sinflari va boshlang'ich tayanch korreksion sinflarda hamda maxsus yordam ko'rsatish xonalarida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar bilan korreksion-pedagogik ishlarni olib boruvchi va muvofiqlashtiruvchi asosiy mutaxassis hisoblanishi belgilangan.

Undan tashqari maxsus pedagoglar boshqa pedagoglar bilan birgalikda inklyuziv ta'lim sinflari va boshlang'ich tayanch korreksion sinflar o'quvchilari bilan ishlash rejasini tuzadi va ularni sinfga uyg'unlashtirishi, korreksion ta'limni olib borishi, mashg'ulotlarning mazmuni va metodlarini tanlashi, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga korreksion-pedagogik, tibbiy yordam ko'rsatilishini muvofiqlashtirishi, boshqa mutaxassislar bilan hamkorlikda umumiy mashg'ulotlarni, kichik guruhlarda va alohida-alohida mashg'ulotlarni olib borishi belgilangan.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun inklyuziv ta'lim oladigan maktabgacha va umumta'lim maktablarida faoliyat yuritadigan maxsus va boshlang'ich, fan o'qituvchilari



pedagogik texnologiyalardan foydalanishda bir qancha **talablarni e'tiborga olishlari zarur:**

o'quv dasturida o'rganilishi rejalashtirilgan mavzuga mos ravishda ta'lim jarayonining ta'lim-tarbiyaviy, korreksion va rivojlantiruvchi maqsadlarini belgilay olishi;

ko'zlangan maqsadga muvofiq natijalarga erishish uchun vazifalar belgilash va belgilangan vazifalarni bajarish yo'nalishida tashkil etiladigan faoliyatni oldindan rejalashtirish, amalga oshirish yo'l-yo'riqlarini va qo'llaniladigan pedagogik rivojlantiruvchi texnologiyalarni tanlash;

pedagogik jarayonda foydalaniladigan didaktik vositalarni tanlash va oldindan tayyorlash; o'quvchilarning mustaqil ta'lim jarayoni natijalariga qiziqishini shakllantirish va rag'batlantirish asosida innovatsion faoliyatni tashkil etish;

o'quvchilarning shaxsiy qiziqish hamda imkoniyatlarini inobatga olib, individual yondashuvni tashkil eta olishi;

maktab, oila va mahallaning o'zaro aloqasini ta'minlash;

vazifalarning mazmun va mohiyatiga ko'ra o'quvchilarning imkoniyatlarini oldindan aniqlashtirish va vujudga kelishi mumkin bo'lgan vaziyatlarni ko'ra olish asosida bajariladigan vazifalarni imkoniyatlarga ko'ra istiqbolli rejalar tuzib borish;

darsda usul va vositalarni tizimli qo'llash rejasini tuza olishi;

ta'lim jarayonini texnik vositalardan unumli foydalanib o'quvchining bilim darajasini boyitib borishi;

ta'limni ruhiy jarayonlarni rivojlantirish bilan birgalikda olib borishi;

pedagog kasbiy mahoratiga ega bo'lgan holda o'quvchilarda shaxsiy sifatlarni kashf qila olish;

o'quvchilarning o'quv, mehnat va o'yin faoliyatlarini nazorat qilish va muvofiqlashtirish.

O'qituvchining didaktik vositalarni darsda samarali qo'llay olishi uning kasbiy malakasini belgilab beradi. Yetarli darajada didaktik vositalar bilan qurollangan va ulardan samarali, o'z o'rnida mahorat bilan foydalana olgan pedagog har doim malakali, ilg'or ustoz hisoblanadi.



Pedagogik texnologiyalardan foydalanish alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan o'quvchilarda quyidagi shaxs xususiyatlarini rivojlantirishga yordam beradi:

o'quvchilarning imkoniyatlarini hisobga olib berilgan topshiriqlar ularda fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi;

o'zidagi muammolardan uyalmay, fikrlarini erkin bayon etishga o'rganadilar;

jamoada ishlash malakasini egallaydi;

guruhdagilar yordamini qabul qilish va ularga yordamga shay turish malakasi shakllanadi;

jarayonning oddiydan murakkabga tomon borishiga ko'ra turli topshiriqlarni mustaqil bajarishga o'rganadi;

o'z-o'zini va o'rtoqlarini to'g'ri baholashga odatlanadilar.

ta'lim oluvchilarning xatti-harakatlarining natijalarini hamda o'rganilishi rejalashtirilgan mavzuni o'zlashtirishga tayyorgarligini oldindan his eta oladi;

ta'lim-tarbiya jarayoni samaradorligini oldindan ko'rish ko'nikmalari shakllanadi;

o'quvchilarda ijobiy o'quv motivlarini shakllantirish va vaziyatlarga ko'ra o'qituvchilik uslublaridan oqilona foydalanish ko'nikmasi hosil bo'ladi;

o'quvchilar bilan o'zaro til topishish, ya'ni muloqotga oson kirishish ko'nikmasi hosil bo'ladi;

o'quvchilar bilan hamkorlikda faoliyat ko'rsatishga undash ko'nikmasi rivojlanadi;

axborotlar to'plash, tahlil qilish, obyektiv baholash, qayta ishlash va axborotlar almashinish ko'nikmasi shakllanadi;

insonning boshqa insonga, jamiyatga, atrof-muhitga munosabatini belgilovchi huquqiy va ma'naviy mezonlarni bilishni boshlaydi;

sog'lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to'g'risida tasavvurga ega bo'ladi;

ta'lim muassasalarida o'quv mashg'ulotlarini tashkil etishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish va boshqarishni boshlaydi;

shaxslararo va tabiat bilan bo'lgan munosabatlarda faol va adolatli hamda muhabbatli bo'ladi;

o'zligini anglash, o'zini va boshqalarni hurmat qilish, o'zini-o'zi boshqara olish va o'z imkoniyatlarini erkin namoyon qilishga harakati uyg'onadi;



oldindan aniqlanayotgan vaziyatlarga nisbatan to'g'ri munosabatda bo'lish ko'nikmasi uyg'onadi, o'zgarlar muvaffaqiyatini oqilona baholash, moddiy va ma'naviy rag'batlantirishni tushuna boshlaydi.

Maxsus yordam ko'rsatish xonalarida ishlash

Inklyuziv ta'lim sinflari va boshlang'ich tayanch korreksion sinflar ochilgan maktablarda o'quvchilarga individual ta'lim dasturlarini o'zlashtirish, rivojlanishiga to'sqinlik qilayotgan omillarni aniqlash, ularga turli ko'rinishdagi psixologik yordam berish maqsadida maxsus yordam ko'rsatish xonalari tashkil etiladi.

Maxsus pedagoglar maxsus yordam ko'rsatish xonalarida o'quvchilar bilan korreksion-pedagogik ishlarni olib boradi va muvofiqlashtiradi. Maxsus yordam ko'rsatish xonalari ta'lim samaradorligi va bolalarning ehtiyojlariga mos keladigan jihozlar va o'quv materiallari bilan jihozlanadi.

mashg'ulotlarning mazmuni va metodlarini tanlaydi;

alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga korreksion-pedagogik, tibbiy yordam ko'rsatilishini muvofiqlashtiradi;

boshqa mutaxassislar bilan hamkorlikda umumiy mashg'ulotlarni, kichik guruhlarda va alohida-alohida mashg'ulotlarni olib boradi;

zarurat bo'lganda o'quvchilar bilan qo'shimcha yakka tartibda mashg'ulotlar tashkil etadi.

Inklyuziv ta'lim amaliyotida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ta'limi rivojlantirish uchun quyidagilarga e'tibor berish kerak:

ta'lim jarayonida barcha bilan birdek munosabatda bo'lish;

hamma bilan bir xil hurmat va e'tibor qarata olish;

yordamchi qurilmalarni qanday foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lish;

o'quvchilar ichki dunyosini tushunadigan tajribaga ega bo'lishi kerak.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari bo'ladimi yoki umumta'lim maktablarida tashkil qilingan inklyuziv guruhlar hamda inklyuziv ta'lim sinflarida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning ta'lim-tarbiya olishi uchun mas'ul tarbiyachi, o'qituvchilar, maxsus pedagog hamda ota-onalar dars, mashg'ulotlar vaqti bo'ladimi yoki uy sharoitida ham vaqtini samarali tashkil qilishi lozimligini sezish mumkin.



Barcha jarayonlarda maxsus pedagogik texnologiyalarni qo'llash, interfaol usullardan mashg'ulot jarayonida foydalanish, didaktik o'yinlar hamda doimiy ko'rgazmali qurollardan foydalanish zaruratini qo'yadi.

Agar siz pedagog yoki ota-ona bo'lsangiz, albatta, bolani qiziqish va shaxsiy qobiliyatlaridan kelib chiqib yondashing. Shunda erishilgan natija yuqori bo'ladi.

Xulosa.

Maxsus pedagog mashg'ulotlarni o'quvchining qiziqish va qobiliyatlaridan kelib chiqib olib borishi. Har bir bosqich alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni motivatsiyalarini oshiradigan, rag'batlantiruvchi so'zlardan foydalangan, o'z-o'ziga ishonchni shakllantirishga yordam beradigan bo'lishi kerak.

Dars mavzulari bolaning imkoniyatlariga qarab tahlil qilinib, bosqichma-bosqich o'qitilishi, mashg'ulotlar yakunida uning muvaffaqiyati uchun og'zaki va yozma ravishda fikr bildirilishi kerak.

Asosiy urg'u shaxsiyatga emas, balki xatti-harakatlardagi xato va kamchiliklarga qaratilishi zarur. Uning bajarilishiga mos topshiriqlar berilishi, u muvaffaqiyatsizlikka uchraganida uni tashlab ketmasdan, sa'y-harakatlarini qadrlash kerak. O'tkazilgan izlanishlarda oila va yaqinlardan yordam olinishi zarur. Doim alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar haqidagi muhim ma'lumotlarni faqat ularning ota-onasi berishini unutmaslik, bu esa maxsus pedagoglarning ish faoliyatiga zamin bo'lishini yodda saqlash zarurligini anglatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Maktabgacha ta'lim sifati va samaradorligini yanada oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2024-yil 30-sentabrdagi PF 152-sonli farmoni;
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2020-yil 13-oktabrdagi PQ-4860-son qarori.



3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 12-oktabr "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi №-638-sonli qarori.
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2019-yil 13-maydagi 391-sonli qarori;
5. S.Mo'minov, Sh.Axmedova, G.Alimova "Inklyuziv sinfdagi maxsus o'qituvchining alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan o'quvchilar bilan ishlash metodikasi" nomli metodik qo'llanma, Toshkent, 2022-yil.

OLIY TA'LIM TIZIMIDA RAHBAR FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY TAJRIBALAR O'RNI VA AHAMIYATI

Nasrullayev To'lg'injon Ismatulla o'g'li

Oliy ta'lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti

Annotatsiya: Bu tezis innovatsion faoliyatni rivojlantirishda xorijiy tajribalar tushunchasini o'rganishga va rahbari oliy ta'lim tizimida o'z innovatsion faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan strategiyalar va dasturlarni o'rganishga bag'ishlangan. Mavzu ilmiy tadqiqotda muhim ahamiyatga ega bo'lib, oliy ta'limning yangi texnologiyalar va xorijiy tajribalarni qabul qilishning ahamiyati haqida nazariy tushunchalarni ta'minlaydi. Annotatsiya davlatlararo hamkorlik, rivojlantirilayotgan mamlakatlarning ta'lim tizimlarini mustahkamlash va o'zaro ta'sirlashishni o'rganish uchun muhim bo'ladi. Tezisdan xorijiy tajribalar va ulardan olingan o'rgangan darslar rivojlanishga ko'maklashish, shuningdek, innovatsion faoliyatni oshirishga qaratilgan strategiyalar va dasturlarni tahlil qilish uchun muhimdir.

Abstract

This thesis is dedicated to the study of the experience of providing in the development of innovative activity and to the study of strategies and programs aimed at the development of the leader's innovative activity in the higher education system. The topic has an important